



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 8 (10)
2024**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 8-son 2024 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

8

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2024

UDK: 818.213

BBK: 84.61

B- 29

Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug‘ maqsadimiz – Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratamiz.

Yangi O‘zbekiston – bu, avvalo, yangi iqtisodiy munosabatlar, yangi iqtisodiy dunyoqarash demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev

Все свои силы и потенциал мы направим на достижение нашей общей великой цели - построение нового Узбекистана. Новый Узбекистан – это, прежде всего, новые экономические отношения, новое экономическое мировоззрение.

Президент Республики Узбекистан
Шавкат Мирзиёев

© Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti

© «*KLASSIC PRINT*» nashriyoti

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 8-son 2024 yil

Ilmiy-uslubiy jurnal 1.09.2022-yildan boshlab chiqa boshlagan, yiliga 6 marta chop etiladi.

Ta’sischi:

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Bosh muharrir

i.f.d., prof. A.Qodirov

Bosh muharrir o‘rinbosari

DSc, dots. X.X.Rejapov

Mas’ul kotib

PhD. K.A.Muxitdinova

Jamoatchilik kengashi:

Prof. I.U.Madjidov (rais), prof. Sh.Toshmatov, PhD E.Yodgorov, i.f.n., dots. A.T.Umarov, i.f.d., prof. A.Qodirov

Tahrir hay’ati:

Prof. Sh.O.Toshmatov, prof. A.Qodirov, prof. A.V.Vaxabov, prof. X.P.Abdulqosimov, prof. F.T.Egamberdiyev, prof. Sh.G.Yo‘ldashev, prof. A.M.Sodiqov, prof. Q.Muftaydinov, prof. K.Ubaydullayev, prof. Q.K.Mambetjanov, prof. I.Y.Umarov, i.f.d. B.Tagayev, i.f.d., Z.T. G‘oipnazarova, prof. P.Z.Xashimov, i.f.d., dots. X.X.Rejapov, dots. A.T.Umarov, i.f.d. B.B.Baxtiyorov, dots. Sh.S.Nasretdinova, dots. B.B.Mullaboyev, dots. Z.Jumaqulov, dots. N.A.Artiqov, dots. K.A.Muxiddinova, dots. D.I.Ro‘ziyeva, dots. A.Ambartsumyan, dots. R.Abdullayeva, dots. A.Boboyev, dots. X.Baratov, dots. N.A.Kudratxodjayeva, dots. M.I.Saidkarimova, dots. B. Adilov, dos. D.M.Yakubova, PhD K.Jabborov, PhD Sh.Abdullayeva, PhD M.Mamanazarov.

Tahririyat manzili:

10095, Toshkent - 95, Universitet ko‘chasi, 4. tel: (+99899) 821-20-72

Журнал сайти: <https://journal.econuu.uz>

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi tomonidan 17.07.2022-yilda № 4715-son bilan ro‘yxatga olingan.

Buyurtma: ISSN 978-9943-5256-3-4

Jurnal OAK ro‘yxatiga 2023 yil 1 iyuldan kiritilgan (OAK rayosat qarori 04.07.2023 yil № 340/5).

Jurnalda ma’lumotlar bosilganda dalillar ko‘rsatilishi shart. Jurnalda chop etilgan ma’lumot va keltirilgan dalilarning aniqligi uchun muallif javobgardir.

“Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti” № 8. 2024

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Новая промышленная политика и промышленные революции.....	6
Alimova M.Y., Qurbonova F.D. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlikning ilmiy-nazariy asoslari.....	14
Kurbanov F.O. Raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy tizimlar rivojlanishiga ta’siri.....	18
Axmadaliyev D.X. The importance of erp systems in accounting for small and medium-sized enterprises in Uzbekistan.....	24
Karimjanova R.M., Nosirov H.X. Namangan viloyati iqtisodiyotini rivojlanishida hunarmandchilikning o‘rni.....	30
Toshev N.J. Qashqadaryo viloyatida turistik aglomeratsiyasini optimal joylashtirish bosqichlari.....	34
G‘aniyev Sh.Sh. O‘zbekiston respublikasida raqamli iqtisodiyot sharoitida inson resurslarini samarali boshqarishning ustuvor yo‘nalishlari.....	39
Қобилов Ш.Р., Гадовев А.Ў. Манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш – коррупцияга қарши курашишнинг муҳим омили.....	43
Ziyodullayeva G.A. Inson kapitalini rivojlantirishda xotin-qizlarning roli.....	48
Abdulazizova N.B. Osiyo-tinch okeani mintaqasi mamlakatlari pensiya tizimi modellari tahlili.....	53
Akishova Sh.D. Mamlakat iqtisodiy o‘shish va rivojlanishida xorijiy investitsiyalarning roli..	59
Abduraxmonov Sh.Sh. O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy ahamiyati va ob’ektiv zarurligi.....	64
Turdiyeva M.U. Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida xalqaro munosabatlardagi o‘rni va mintaqalardagi rivojlanish bosqichlari.....	72
Makhkamova Sh. Implementation of innovative activity in industrial enterprises.....	78
Karimjanova R.M. Digital transformation of small business and entrepreneurship marketing	83
Doniyorova Sh.D. Korxonaning resurs samaradorligini oshirishda innovatsion loyixalarning ahamiyati.....	86
Bazarova G.G. Poverty reduction in Uzbekistan: national movement and new approaches...	90
Sultanov J. Ўзбекистонда тadbirkorlikni mo‘ljallashtirishda muzorabadan foydalаниш йўллари.....	94
Ахмедов Х.Н. Янги Ўзбекистоннинг стратегиясида камбағалликни қисқартириш: муаммо ва ечимлар.....	98
Хамраева С.Н. “Industriya-4” – to‘rtinchi sanoat inqilobining konsepsiyasi va rivojlanish tendensiyalari.....	104
Abduraxmonov V.G‘. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tadbirkorlik sub’ektlarining o‘rni.....	108
Xalmatjanov F.M. O‘zbekiston respublikasida sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari.....	113
Umarov O.O. Valyuta risklari va ularni boshqarish masalalari.....	117
Джаббаров Р.А. Макроиктисодий кўрсаткичларнинг статистик таҳлили.....	121
Aytimbetova B.K. Asalarichilikda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.....	127
Nosirov S. Analyzing the relationship between customer satisfaction and customer loyalty..	131
Tuychiyev A.G‘. Innovatsiyalar transferi va ularni tijoratlashtirilishini rag‘batlantiruvchi moliyaviy mexanizm.....	137
Муйдинов Э.Д. Ўрта бизнес корхоналари фаолияти аудитини ўтказишда таҳлилий тadbirkorlardan foydalаниш услуби.....	142
Ускенбаева Д.Б. Пул муомаласи тўғрисидаги назарий қарашлар эволюцияси.....	149
Холматов Б.А. Пандемиядан кейинги евроиттифоқни ривожлантириш сценарийлари..	153

Юлдашева Г.А. Эффективная организация коммерческой деятельности розничных торговых предприятий.....	157
Chilmatova D.A. Инвестиция фаолиятининг минтакавий хусусиятлари ва самарадорлигини ошириш кўрсаткичлари.....	160
So‘fiyev R.A. O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashda yashil iqtisodiyotning dolzarbligi.....	165
Ziyayev D.S. Yangi tug‘ilgan buzoqlarni chorvachilik korxonalaridagi asosiy vositalarga joriy etish muammolari.....	169
Axmadaliyev D.X. The importance of erp systems in accounting for small and medium-sized enterprises in Uzbekistan.....	176
Salomova S.S. Dunyo neft va gaz sanoatining mamlakatlar iqtisodiyotidagi ahamiyati.....	182
Ochilova N.A., Safarova Z.Z. Uy xo‘jaligi faolligini ta‘minlash asosida aholi farovonligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	185
Мухторова У.К. Ўзбекистон Республикасида кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантиришнинг ҳозирги ҳолати.....	189
Kurbonov S.S. Investment activity and prospects for its development.....	194
Axmedov O‘.A. O‘zbekistonda investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	199
Ergashev T. Sh. Buxoro viloyatida integratsiya asosida tayyorlanayotgan yuqori malakali kadrlarni ichki baholashdan o‘tkazishni boshqarish metodikasi.....	203

- raqamli texnologiyalarni joriy qilish: Sanoatda sun’iy intellekt va zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish.

Ushbu takliflar har bir davlat va kompaniyaning individual strategiyasiga mos ravishda modifikatsiya qilinishi mumkin. Jahon iqtisodiyotida energiya manbalarining samarali va barqaror boshqarilishi dunyodagi barcha davlatlarning umumiy manfaati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://www.bp.com/> rasmiy veb-sayti .BP Statistical Review of World Energy 2023 .
2. <https://www.shell.com/> Shell Annual Report and Accounts 2021 – Shell kompaniyasining moliyaviy ko‘rsatkichlari va sanoatdagi umumiy hissasi haqida.
3. <https://www.statista.com/> Statista Energy Reports 2023 – Dunyo bo‘ylab neft va gaz bozorlari va trendlari haqida ma’lumotlar.
4. EIA veb-sayti– AQSHdagi neft va gaz sanoati, shu jumladan, slanets gaz ishlab chiqarish statistikasi.
5. <https://www.eia.gov/>– Xalqaro Energetika Agentligi tomonidan dunyo energetikasi vakillarining trendlari va prognozlar.
6. https://www.opec.org/opec_web/en/. Neft ishlab chiqarish, eksport va mamlakatlar bo‘yicha taqsimot haqida ma’lumotlar.

UDK 631.115.1

UY XO‘JALIGI FAOLLIGINI TA’MINLASH ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ХОЗЯЙСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR INCREASING THE WELL-BEING OF THE POPULATION BASED ON ENSURING ECONOMIC ACTIVITY.

Ochilova Nargiza Akramovna,
QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti
Safarova Zulfizar Zafar qizi,
“Iqtisodiyot” ta’lim yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada uy xo‘jaligi tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, nazariy asoslari, uy xo‘jaligi alohida sektor sifatida rivojlanishiga hissa qo‘shgan xorijlik hamda o‘zbek iqtisodchi olimlarning fikrlari o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada respublikada uy xo‘jaligi faolligini ta’minlash asosida aholi farovonligini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: uy xo‘jaligi, uy xo‘jaligi faolligi, aholi farovonligi, iqtisodiy resurs, iqtisodiy subyekt, ehtiyoj, inson kapitali, takror ishlab chiqarish.

В данной статье изучаются социально-экономическая сущность концепции домашнего хозяйства, ее теоретические основы, мнения зарубежных и узбекских экономистов, внесших вклад в развитие домашнего хозяйства как отдельной отрасли. Также в статье проанализированы реформы, проводимые по повышению благосостояния населения на основе обеспечения хозяйственной деятельности в республике, представлены предложения и рекомендации.

Ключевые слова: домохозяйство, бытовая деятельность, благосостояние населения, экономический ресурс, экономический субъект, потребность, человеческий капитал, воспроизводство.

This article studies the socio-economic essence of the concept of housekeeping, its theoretical foundations, the opinions of foreign and Uzbek economists who contributed to the development of housekeeping as a separate industry. The article also analyzes the reforms carried out to improve the well-being of the population on the basis of ensuring economic activity in the republic, and presents proposals and recommendations.

Key words: household, everyday activities, welfare of the population, economic resource, economic subject, need, human capital, reproduction.

Jahon iqtisodiyotida amalga oshiriladigan barcha iqtisodiy, siyosiy va boshqa islohotlar aholi turmush darajasini yaxshilashga, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki, har bir rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatning iqtisodiy barqarorligini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri aholi turmush darajasi hisoblanadi. Aholi farovonligini oshirishda, uy xo‘jaliklari faoliyatini, ularning daromadlarini tubdan o‘rganish va tahlil qilish dolzarb muammolardan biri sanaladi. Bugungi kunda uy xo‘jaliklari dunyo bo‘yicha eng ko‘p ommalashgan iqtisodiy subyekt sifatida globallashtirish jarayonlarining salbiy ta‘siri natijasida og‘ir ahvolga tushib qolgan sektorlardan biri bo‘lib, ularni moliyaviy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va to‘la bandligini ta‘minlash asosida iqtisodiy faollik darajasini oshirish muhim o‘rin tutadi. Bu ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini taraqqiy ettirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra, uy xo‘jaliklarida jamg‘arish me‘yorining ma‘lum darajaga o‘sishi, iqtisodiyotga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarni bir necha bor o‘shirishga nisbatan yuqori samara beradi. Jahon banki dunyoning 174 ta rivojlanayotgan davlatlarida UNDP (United Nations Development Programme) dasturi orqali ushbu vazifalarni hal etish uchun har yili 5-6 mlrd.AQSH dollari miqyosida investitsiya yo‘naltirmoqda. [1] Shuning uchun ham bugungi kunda jahon banki iqtisodiy siyosatida eng ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, uy xo‘jaliklari faolligini ta‘minlash asosida aholi farovonligini oshirishga yo‘naltirgan imtiyozli kreditlar ajratish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida hududlar imkoniyatlarini hisobga olgan holda, aholi turmush shart-sharoitini yaxshilash, ular farovonligini uy xo‘jaliklari faolligini ta‘minlash asosida rivojlantirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarining natijadorligiga erishishda innovatsion va an‘anaviy yondashuv o‘rtasidagi integratsiyani takomillashtirish maqsadida, aholining yuqori daromadli barqaror ish bilan bandligini ta‘minlash, yoshlarning innovatsion va raqamli texnologiyalarga asoslangan ta‘lim olishi va kasb-hunar o‘rganishi, yo‘nalishlarida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobiga 2024-yilning so‘nggi choragida 500 ming, 2025-yilda 1 million nafar [2] aholini kambag‘allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining hamda barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi darajali vazifasi sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi PQ-3777-son “Har bir oila-tadbirkor to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3856-son “Aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4231-son “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-son “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi farmonlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar uy xo‘jaligi sektorlar faolligini ta‘minlash asosida aholi farovonligini oshirishdagi vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Uy xo‘jaliklarini alohida sektor sifatida rivojlantirishida xorijlik iqtisodchi olimlardan G.Bekker, X.Gramkov, Dj.M.Keyns, D.Nort, S.Bryu, K.R.Makkonel, D.Rikardo, Dj.Gelbreyt, A.Smit va boshqalar o‘zlarining ilmiy ishlarida uy xo‘jaligini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishgan va tahlil qilishgan. Uy xo‘jaliklarining iqtisodiy faolligini oshirish muammolari MDH olimlari M.Achapovskaya, A.Ye.Novak, A.G.Batrakova, M.V.Dovbenko, Yu.I.Osik, I.A.Dubrovin, V.Kotov, S.A.Tolkachevalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan T.T.Djurayev, A.V.Vahobov, T.M.Axmedov, B.B.Berkinov, B.S.Abdullayev, Sh.G‘.Akramova, F.Axmedov, U.Q.Axmedov, A.V.Vahobov, B.T.Salimov, R.R.Xasanov, G.M.Shodiyeva, A.O‘lmasov, H.P.Abulkasimov, B.K.G‘oyibnazarov, D.T.Yuldashev, Dj.Sh.Badalov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida uy xo‘jaliklari sektorining imkoniyatlaridan takror ishlab chiqarish jarayonida samarali foydalanishning iqtisodiy hamda nazariy jihatlari yoritilgan.

Uy xo‘jaligi faolligini ta‘minlash asosida aholi farovonligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari bir qancha xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tahlil qilingan, ularning bu boradagi fikr-mulohazalari ilmiy adabiyotlarda asoslab berilgan. “Uy xo‘jaligi” atamasiga ta‘rif berish va ularning ustunlik jihatlari yoritishda turli xil yondashuvlar mavjud (1-jadval).

1-jadval

Uy xo‘jaligi tushunchasiga ta‘riflar [3]

Mualliflar	Nazariy qarashlar
Oleynik A.N. [1]	Uy xo‘jaligi – inson kapitalini takror barpo etishning umumiy vazifalari, yashash joyi, budjet va oila-qarindoshlik aloqalari bilan birlashgan insonlar guruhi. Uy xo‘jaligining asosida hokimiyat munosabatlari yotadi – birgalikdagi iqtisodiy faoliyat ustidan nazorat qilish huquqlari oila a‘zolaridan biriga, ya‘ni oila boshlig‘iga topshiriladi.
Makkonell S.R., Bryu S.D. [2]	Uy xo‘jaligi – bir yoki undan ko‘p shaxsdan tarkib topgan, iqtisodiyotni resurslar bilan ta‘minlovchi va ushbu resurslar uchun olingan pulni insonning moddiy ehtiyoilarini qondiruvchi tovar va xizmatlarni sotib olish uchun sarflowchi iqtisodiy birlik.
Mironenko O.V. [3]	Itimoiy-mehnat munosabatlarning subyekt sifatida uy xo‘jaligi – umumiy budjet va yashash joyi bilan birlashgan, har gavsisi ishlab chiqarish omili sifatida mehnat ta‘minotchisi bo‘lgani holda bandlik maqomiga ega bo‘lgan, shuningdek, ham tabiiy, ham tovar xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy faoliyatda ishtirok etuvchi bir yoki bir necha shaxslar guruhi.
O‘lmasov A, Vahobov A. [4]	Uy xo‘jaligi-bu mol-mulki, daromad va xarajati, iste‘moli hamda istiqomat joyi umumiy bo‘lgan mini guruhdir.
Ahmedova M.A. [5]	Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo‘jaligi resurslar, mahsulotlar va xizmatlarni xarid qilish va sotish to‘g‘risida mustaqil qaror qabul qiluvchi, o‘z ehtiyoilarini imkon qadar qondirishga intiluvchi bozor munosabatlarning agentini o‘zida namoyon etadi.
Berdiyev G‘.I. [6]	Uy xo‘jaligi mol–mulkdan birgalikda foydalanish, hamkorlikda qarorlar qabul qilish, o‘z hayotiy faoliyatining shart-sharoitlarini va unda inson kapitalini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishini ta‘min etish uchun boshqa iqtisodiy subyektlar (firmalar, davlat) bilan mavjud resurslarni ayirboshlash yuzasidan o‘zaro aloqalarga kirishuvchi, ko‘p funksional, iqtisodiy jihatdan alohidalashgan va keng ommalashgan iqtisodiy subyekt.
Mualliflik yondashuvi	Bizning fikrimizcha, uy xo‘jaligi – bu yashash joyi bir bo‘lgan, foydalanadigan mulki, oladigan daromadlari va xarajatlari bir byudjetni tashkil etadigan, hamkorlikda qaror qabul qiladigan, takror ishlab chiqarish jarayonida boshqa iqtisodiy subyektlar bilan bor bo‘lgan resurslarni ayirboshlash maqsadida aloqaga kirishuvchi kichik guruhdir.

O‘zbekiston Respublikasida aholi farovonligini oshirishga qaratilgan masalalarning tub negizida uy xo‘jaligi sektorlari, ular a‘zolarining qay darajada ish bilan ta‘minlanganligi, ularning daromadlari, yashash shart-sharoitlari yotadi. Shuning uchun ham davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar to‘g‘ridan to‘g‘ri uy xo‘jaliklari faoliyatiga qaratilgan bo‘ladi. Shu o‘rinda aytish joizki, aholi o‘zini o‘zi band qilishi, oilaviy tadbirkorliklarini yanada rivojlantirgan holda uy xo‘jaliklari sektorlarini daromadlarini yanada oshirish maqsadida davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, moliyaviy ko‘mak sifatida subsidiyalar ajratilmoqda. 2023-yilda uy xo‘jaligi subyektlari sifatida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun kamida 13 trillion so‘m yo‘naltirildi va bundan 2,8 trillion so‘m kredit mablag‘lari AT Xalq banki, “Agrobank” ATB va “Mikrokreditbank” ATBning (keyingi o‘rinlarda — vakolatli banklar) o‘z resurslari hisobidan ajratiladi [4]. Bundan asosiy maqsad, o‘z-o‘zini band qilish, aholining real daromadlarini oshirishda uy xo‘jaliklari faolligini ta‘minlashdan iborat.

Aholi farovonligini yanada oshirishda uy xo‘jaligi faolligini ta‘minlash muhim o‘rin tutganligi bois, davlat tomonidan uy xo‘jaligi sektorlari uchun o‘zini o‘zi band qilishi, oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ullanib, daromadlarini yanada ko‘paytirishlari maqsadida imtiyozli moliyaviy mablag‘lar ajratilib kelinmoqda. aholining mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadini oshirish uchun uzluksiz ravishda biznes muhitini yaxshilash va kiritilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Умурзаков У.П., Чариев К.А. Организационно-экономические и правовые основы реструктуризации сельскохозяйственных предприятий на переходном этапе. – Т.: Мехнат, 196. – 56 с.
2. Мэнкью Н.Г. Принципы в экономике. – СПб: ПитерКом. – 1999, - С. 48.
3. Петухова Е.П. Совершенствование механизма регулирования домашнего хозяйства в современной экономике России. Автореферат дисс. К.э.н., Брянск, 2004. – 24 с.
4. Ўлмасов А., Ваҳобов А. Иқтисодиёт назарияси. -Т.: —Иқтисод-Молия, 2014. -456 б.;
5. Ахмедова М.А. Домашнее хозяйство в системе национальной экономики и его роль в развитии рыночных отношений Республики Таджикистан. Автореф. дис. к.э.н., Худжанд, 2012. – 18 с.
6. Berdiyev G‘.I. Milliy iqtisodiyotda uy xo‘jaliklari iqtisodiy faolligin oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.– Guliston. 2020.-12b.